



DIRECTIONS AND PERSPECTIVES OF SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF SCIENTIFIC PERSONNEL TRAINING

Shahrukh Sh. Fazliddinov

Independent researcher

Institute of Personnel Training and Statistical Research

Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Academic personnel, problems, Scientists, engineers, researchers, challenges, achievements, analysis, perspectives, development, study, research, living, expenses, supporting doctoral student, young family, scholarship

Received: 21.12.23

Accepted: 23.12.23

Published: 25.12.23

Abstract: The sustainable development of the process of training personnel with a scientific degree is an important direction of the modern education system. It is a process that includes the preparation and teaching of undergraduate, graduate, and doctoral students. One of the main directions of sustainable development of this process is the creation and development of scientific schools and laboratories. This is achieved by combining the efforts of leading scientists and researchers in solving current scientific problems and developing new technologies. However, various factors such as financing, ease of education and state support have been studied and analyzed in order to achieve sustainable development of the process of training personnel with a scientific degree.

ILMIY DARAJALI KADRLAR TAYYORLASH JARAYONINIG BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING YO'NALISHLARI VA ISTIQBOLLARI

Shohruh Sh. Fazliddinov

mustaqil izlanuvchi

Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar instituti

O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Ilmiy darajali kadrlar, muammolar, Olimlar, muhandislar, tadqiqotchilar, qiyinchiliklar, yutuqlar, tahlil, istiqbollar, rivojlanish, o'qish, tadqiqot, yashash, xarajatlar, tayanch doktorant, yosh oila, stipendiya.

Annotatsiya: Ilmiy darajali kadrlar tayyorlash jarayonini barqaror rivojlantirish zamonaviy ta'lim tizimining muhim yo'nalishi hisoblanadi. Bu bakalavriat, magistratura va doktorantlarni ilmiy daraja olish uchun tayyorlash va o'qitishni o'z ichiga olgan jarayondir. Bu jarayonni barqaror rivojlantirishning asosiy yo'nalishlaridan biri

ilmiy maktablar va laboratoriyalarni yaratish va rivojlantirishdir. Bu dolzarb ilmiy muammolarni hal etish va yangi texnologiyalarni ishlab chiqishda yetakchi olim va tadqiqotchilarning sa'y-harakatlarini birlashtirish orqali erishiladi. Biroq, ilmiy darajaga ega bo'lgan kadrlar tayyorlash jarayonining barqaror rivojlanishiga erishish uchun moliyalashtirish, ta'limning qulayligi va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash kabi turli omillar o'rganib tahlil qilingan.

НАПРАВЛЕНИЯ И ПЕРСПЕКТИВЫ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ ПОДГОТОВКИ НАУЧНЫХ КАДРОВ

Шахрух Ш. Фазлиддинов

Независимый научный сотрудник

Института подготовки кадров и статистических исследований

Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Академический персонал, проблемы, Ученые, инженеры, исследователи, задачи, достижения, анализ, перспективы, развитие, учёба, исследования, проживание, расходы, поддержка докторанта, молодая семья, стипендия.

Аннотация: Устойчивое развитие процесса подготовки кадров с научной степенью является важным направлением современной системы образования. Это процесс, который включает в себя подготовку и обучение студентов, аспирантов и докторантов. Одним из основных направлений устойчивого развития этого процесса является создание и развитие научных школ и лабораторий. Это достигается за счет объединения усилий ведущих ученых и исследователей в решении актуальных научных проблем и разработке новых технологий. Однако для достижения устойчивого развития процесса подготовки кадров с научной степенью были изучены и проанализированы различные факторы, такие как финансирование, простота обучения и государственная поддержка.

KIRISH

Hozirgi zamonda ilm-fanning turli sohalarida taraqqiyot va innovatsiyalarga erishishda ilmiy darajali kadrlar asosiy rol o'ynaydi. Yuqori malakali ilmiy darajali kadrlar tayyorlash va malakasini oshirish jamiyatning barqaror rivojlanishini ta'minlashning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Ushbu maqolada biz ilmiy darajali kadrlar tayyorlash jarayonining barqaror rivojlanishiga hissa qo'shadigan yo'nalishlar va istiqbolli parametrlarni ko'rib chiqamiz.

Zamonaviy muammolar va ilmiy kadrlarga qo'yiladigan talablar, Zamonaviy dunyoda ilmiy darajali kadrlarga bo'lgan talablar doimiy ravishda o'sib bormoqda. Murakkab ilmiy muammolarni hal etishga, fanlararo tadqiqotlar olib borishga, shuningdek, innovatsion uslub va texnologiyalarni

qo'llashga qodir mutaxassislarni tayyorlashni ta'minlash zarur. Bundan tashqari, ilmiy darajali xodimlarning ilmiy jamoalarda samarali ishlashi va ishlab chiqarish bilan o'zaro munosabatda bo'lishi uchun muloqot, yetakchilik va hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

Murakkab global muammolar bilan tavsiflangan tez o'zgarib borayotgan dunyoda ilmiy darajadali kadrlar tayyorlashning barqaror rivojlanishi muhim ahamiyatga ega. Olimlar, muhandislar va tadqiqotchilarni tayyorlash iqlim o'zgarishi, pandemiya va texnologik taraqqiyot kabi muammolarni hal qilishda muhim rol o'ynaydi.

Ilmiy darajali kadrlar tayyorlash jarayonining barqaror rivojlantirish uchun birinchi navbatda quyidagi maqsadlarni belgilab olish zarur:

- ilmiy darajali kadrlar tayyorlashning hozirgi holatini baholash;
- ushbu sohadagi qiyinchiliklar va yutuqlarni tahlil qilish;
- ilmiy darajali kadrlar tayyorlashda barqarorlik konsepsiyasini o'rganish;
- barqaror rivojlanishning istiqbolli parametrlari va strategiyalarini aniqlash;
- muvaffaqiyatli barqaror ta'lim modellarini ko'rsatadigan amaliy tadqiqotlarni taqdim etish.

ASOSIY QISM

Kadrlar tayyorlash barqarorligini oshirish bo'yicha mavjud adabiyotlarni har tomonlama ko'rib chiqish, ma'umotlarni tahlil qilish va amaliy tadqiqotlarga asoslangan nufuzli manbalardan, jumladan, akademik jurnallar, ta'lim muassasalari hisobotlari va Hukumat nashrlaridan to'plangan ma'lumotlarni o'rganish hamda olingan bilimlarni amalda qo'llay bilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ilmiy darajali kadrlar tayyorlash butun dunyo bo'ylab oliy ta'lim va ilmiy tadqiqot muassasalarining muhim jihati hisoblanadi. Biroq, tizim uning samaradorligi va uzoq muddatli barqarorligiga ta'sir qiluvchi bir qator muhim muammolarga duch kelmoqda:

- Ilmiy darajaga ega bo'lishning yuqori xarajati (ishdan ajralgan holatda tadqiqot olib borish), jumladan, o'qish, tadqiqot va yashash xarajatlari ko'pincha ilmiy izlanuvchilarni iqtisodiy tomondan o'ylovga qo'yadi va ba'zi iqtidorli shaxslarni ilmiy darajaga ega bo'lish niyatidan qaytaradi.

Ma'lumot uchun: 2023-yil holatida tayanch doktoranturada stipendiya miqdori 5 269 460 so'm, bu ko'rsatkich oldingi yillarga nisbatan ancha yaxshi lekin, misol sifatida o'rtahol bir nafar farzandi bor yosh oila boshlig'ini oladigan bo'lsak Toshkent shahri sharoitida erkak izlanuvchilar uchun ham tadqiqot olib borib ham oila boqishga hamda ijarada turadigan bo'lsa stipendiya miqdori ijara haqini to'lashga yetarli emas (Ijara xarajatlari, eng arzon bir xonali uy Toshkent shahrida o'rtacha 250 AQSH dollari (O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki valyutalar kursining 2023-yil 29-noyabr holatida 3 078 750 so'm)).

O'rtahol, bir nafar farzandi bor yosh oila boshlig'ini tayanch doktorantura tadqiqotchisi sifatida kunlik xarajatlarini tahlil qilib chiqamiz (1.1-jadval):

1.1-jadval

**Bir oyda o'rtacha mehnatga layoqatli shaxs iste'mol qiladigan tovar va xizmatlarning
quyidagi ro'yxati**

№	Nomlanishi	O'lchov birligi	Iste'mol hajmi	Bir o'lchov birligi bahosi	Summa
1.	Non (Buxanka)	dona	10	2800	28000
2.	Un (1-navli)	kg	3	6300	18900
3.	Makaron	kg	2	8000	16000
Jami:					62900
Go'sht va go'sht mahsulotlari					
4.	Mol go'shti	kg	4	75000	300000
5.	Qo'y go'shti	kg	2	79000	158000
6.	Tovuq	kg	2	30000	60000
7.	Kolbasa mahsulotlari	kg	1	60000	60000
Jami:					578000
Baliq va baliq mahsulotlari					
8.	Baliq	kg	2	40000	80000
9.	Baliq mahsulotlari	kg	1	35000	35000
Jami:					115000
Sut va sut mahsulotlari					
10.	Sut	litr	2	8000	16000
11.	Qaymoq	200 gr	2	8000	16000
12.	Kefir (Qatiq)	litr	2	10000	20000
13.	Smetana	400 gr	1	8000	8000
14.	Sariyog'	250 gr	2	12500	25000
15.	Tvorog	400 gr	1	14000	14000
Jami:					
16.	Shakar	kg	1	13000	13000
17.	Tuxum	dona	18	1400	25200
18.	O'simlik moyi	litr	1	20000	20000
19.	Margarin	200 gr	1	7000	7000
20.	Choy	200 gr	1	10000	10000
21.	Tuz	kg	1	2500	2500
22.	Ziravorlar	dona	3	5000	15000
Jami:					191700
Guruch va yormalar					
23.	Guruch	kg	2	16000	32000
24.	Suli yormasi (ovsyaniya krupa)	kg	1	6000	6000

№	Nomlanishi	O'lchov birligi	Iste'mol hajmi	Bir o'lchov birligi bahosi	Summa
25.	Bug'doy yormasi (mannaya krupa)	kg	1	4500	4500
26.	Grechka	kg	1	13000	13000
27.	No'xat yormasi	kg	1	4000	4000
Jami:					59500
Dukkakli (бобовые)					
28.	No'xat	kg	1	21000	21000
29.	Loviya (Fasol)	kg	1	17500	17500
30.	Mosh	kg	1	14000	14000
Jami:					52500
Sabzavotlar					
31.	Kartoshka	kg	8	3800	30400
32.	Sabzi	kg	2	4200	8400
33.	Lavlagi	kg	1	3500	3500
34.	Sholg'om	kg	1	3000	3000
35.	Karam	kg	2	1500	3000
36.	Ko'katlar	kg	4	1000	4000
37.	Piyoz	kg	6	3500	21000
38.	Sarimsoq	kg	0,5	17400	8700
39.	Pomidor	kg	4	4900	19600
40.	Baqlajon	kg	1	5500	5500
41.	Bulg'or qalampiri	kg	1	6500	6500
42.	Bodring	kg	2	5000	10000
43.	Kabachok	kg	1	10000	10000
44.	Qovoq	kg	1	2500	2500
45.	Qovun	kg	2	5000	10000
46.	Tarvuz	kg	2	2500	5000
Jami:					151100
Meva va rezavorlar					
47.	Olma	kg	1	11500	11500
48.	O'rik	kg	1	7000	7000
49.	Gilos	kg	1	21000	21000
50.	Anor	kg	1	9000	9000
51.	Nok	kg	1	26000	26000
52.	Shaftoli	kg	1	15000	15000

№	Nomlanishi	O'lchov birligi	Iste'mol hajmi	Bir o'lchov birligi bahosi	Summa
53.	Banan	kg	1	20000	20000
54.	Uzum	kg	1	16900	16900
55.	Malina	kg	1	18000	18000
56.	Qulupnay	kg	1	20000	20000
Jami:					164400
Sitrus mevalar					
57.	Limon	kg	0,5	30000	15000
58.	Mandarin	kg	1	23000	23000
Jami:					38000
Shaxsiy gigiyena va kosmetika vositalari					
59.	Sovun	dona	1	4500	4500
60.	Tish pastasi	dona	1	8000	8000
61.	Shampun	dona	1	20500	20500
62.	Boshqa vositalar		1	100000	100000
Jami:					133000
Xo'jalik mollari					
63.	Kir yuvish kukuni	dona	1	15000	15000
64.	Tualet qog'oz	dona	4	2000	8000
65.	Yuvish vositalari, Gellar	dona	1	7000	7000
Jami:					30000
Xizmatlar va servislar					
66.	Tibbiy xizmatlar		1	90000	90000
67.	Sartaroshxona		1	35000	35000
68.	Mashg'ulotlar (qo'shimcha ta'lim)		1	300000	300000
69.	Kabel televideniye		1	45000	45000
70.	Internet va mobil aloqa		1	100000	100000
71.	Transport (faqat o'qishga borib kelsa)		1	84000	84000
72.	Kommunal to'lovlar		1	300000	300000
73.	Ijara xarajatlari (bir xonali uy)		1	3044415	3078750
Jami:					4032750
	Jami:				5608850

* *Ayrim turdagi mahsulotlar 2023-yil yoz oylaridagi narxlar bilan hisoblangan.*

Yuqoridagi tahlillardan ko'rishimiz mumkinki tayanch doktoranturada tahsil olayotgan O'rtahol, bir nafar farzandi bor yosh oila boshlig'ining stipendiyasi faqatgina shaxsiy ehtiyojlari uchun sarflanar

ekan. Tahlillarimizda faqat kundalik hayotda kerak bo'ladigan eng zarur mahsulotlar inobatga olingan bo'lib undan tashqari bir qancha mahsulotlar shu jumladan kiyim-kechak mahsulotlari kiritilmagan, shunday bo'lsada davlat tomonidan beriladigan stipendiya miqdoridan 339 390 so'm ko'p pul sarflashga to'g'ri keladi (yurtimizda kam oylikda oila boqib yurganlar ham bor, lekin, ilm ahli faqat oilaviy ahvol o'y xayollari bilan yurar ekan u, hech qachon natijaga erisha olmaydi). Ko'rib turganimizdek tadqiqot qilish niyatida doktoranturaga o'qishga kirgan izlanuvchining olgan stipendiyasi shaxsiy ehtiyojlaridan ortmayapti. Bu o'z-o'zidan izlanuvchi o'zining tadqiqotlariga mablag' ajratmayotganidan dalolat beradi. Shunday ekan tadqiqotchi faqatgina oilaviy muammolar domiga tushib qolib tadqiqotiga vaqt ajrata olmaydi natijada ilmiy faoliyat bilan shug'ullanayotganlarning ilmiy samaradorligi tushib ketishiga hamda sifatsiz mutaxassislar yetishib chiqishiga olib keladi. Davlatimiz tomonidan hozirgi kunda sharoitlar yaratilayotgani yaxshi lekin, shu sharoitlarni yanayam samarali bo'lishi, ilmiy tadqiqotchilarning faqat ilm bilan shug'ullanishi uchun yillik real inflyatsiya miqdorini hisobga olgan holda oqilona hisob-kitoblar orqali tadqiqotchilarning stipendiya miqdorini yanada oshirish hozirgi zamon talablaridan hisoblanadi hamda ilm-fanning rivojiga sezilarni hissa qo'shadi. "Garchi ilm izlanuvchilariga yetarlicha sharoit yaratmas ekanmiz, mamlakatimizning ilm-fan ildiziga bolta urgan bo'lamiz".

XULOSA

Yuqoridagi tahlillar asosida xorijiy davlatlarning ushbu sohadagi faoliyatlari va stipendiya miqdorlarini o'rganib chiqib tahlil qilindi. Rossiya Federatsiyasining oliy ta'limdan keyingi ta'limida aspiranturada tahsil olayotganlar uchun stipendiya miqdori Rossiya Federatsiyasi Ta'lim va fan vazirining Rossiya Adliya vazirligida 2017-yil 24-yanvarda N 45376 raqam bilan ro'yxatga olingan buyrug'i ilovasining 2-bandida Talabalar uchun davlat akademik va ijtimoiy stipendiyalari, aspirantura va ordinaturada tahsil olayotganlar hamda stajyor tadqiqotchilar uchun davlat stipendiyalari ta'lim faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilot tomonidan belgilangan miqdorda to'lanishi belgilab qo'yilgan. Shunga asosan Rossiya Federal budjet ilmiy muassasi Davlat Virusologiya va biotexnologiya tadqiqot markazining 2023-yil 18-sentabrdagi № 384-09 buyrug'iga asosan markazning Federal byudjet muassasasi aspirantlari uchun 2023-yil 1-sentabrdan boshlab stipendiyalar oyiga 11 274,13 rubl (O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki valyutalar kursining 2023-yil 29-noyabr holatida 1 566 991,3287 so'm) miqdorida belgilangan. Ushbu miqdor hozirgi zamon talablaridan ancha past ekanligini guvohi bo'lishimiz mumkin, shu sababli ham Rossiya Federatsiyasidan ilmiy qatlam Yevropa tomon harakatlana boshlagan. Tahlillar natijasidan shuni ko'rishimiz mumkinki bizni mamlakatimizda ilm-fanga berilayotgan e'tibor ham doktorantlarning stipendiya miqdorlari ham qolgan mamlakatlarga nisbatan ancha yuqoridir. Yurtimizda ilmiy darajali kadrlar sonini hamda aholimiz orasida ilmiy salohiyatni yuksaltirish maqsadida hozirgi borayotgan yo'limizdan odimlab

sohaning rivoji uchun yanada ko‘proq imkoniyatlar eshigini ochishimiz uchun sharoitlar yaratish lozimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-fevraldagi PF-4958-son Farmoni;
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 18-avgustdagi 233-son qarori;
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-maydagi 304-son qarori;
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 6-noyabrdagi 696-son qarori;
5. Rossiya Federatsiyasi Ta’lim va fan vazirining Rossiya Adliya vazirligida 2017-yil 24-yanvarda N 45376 raqam bilan ro‘yxatga olingan buyrug‘i;
6. Rossiya Federal budjet ilmiy muassasi Davlat Virusologiya va biotexnologiya tadqiqot markazining 2023-yil 18-sentabrdagi № 384-09 buyurug‘i;
7. <https://cbu.uz/oz/>
8. <https://stat.uz/uz/>